

XALQ HUNARMANDCHILIGINING TARAQQIYOTI BOSQICHLARI HAQIDA O‘QUVCHILARGA TUSHUNCHALAR BERISH

Umarov Rahim Tojiyevich, Isoqov Shohruh

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Texnologik ta’lim kafedrası o’qituvchilari,
Jizzax, O’zbekiston
e-mail:rahim@jspi,uz*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Texnologiya fani bo’yicha amaliy mashg’ulotlarda o’quvchilarga xalq hunarmandchiligining taraqqiyoti bosqichlari haqida tushunchilar berishga oid masalalar qaraladi.

Kalit so‘zlar: Xalq hunarmandchiligi, texnologiya fani, paleolit davri, mezolit davri, neolit davri, eneolit davri, bronza davri.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы ознакомления учащихся с этапами развития народных промыслов на практических занятиях по технологии.

Ключевые слова: народные промыслы, технология, палеолит, мезолит, неолит, энеолит, бронзовый век.

Abstract: This article deals with the issues of providing students with an understanding of the stages of development of folk crafts in practical classes on technology.

Annotation: Folk Crafts, Technology, Paleolithic, Mesolithic, Neolithic, Eneolithic, Bronze Age.

Xalq hunarmandchiligining tarixiy kelib chiqishi insoniyatning bolalik davriga borib taqaladi. Bashariyat ulg‘ayib borgan sari xalq hunarmandchiligi ham yuksala bordi. Yashash uchun kurash mavjud ekan, yaxshi yashash uchun ehtiyoj kuchayib borish jarayonida qo‘l mehnatidan aqliy mehnat ajralib chiqa boshladi. Ov qurollari, uy-ro‘zgor buyumlariga bo‘lgan ehtiyoj kuchayib bordi. Avvalo tosh o‘ymakorligi, suyak o‘ymakorligi, keyinchalik esa yog‘och o‘ymakorligi va hunarmandchilikning boshqa turlari ham sekin astalik bilan o‘z rivojini topdi. Texnologiya fanidan o‘quv dasturi (1-9-sinf)ga ko‘ra barcha sinflarda “Texnologiya va dizayn” va ”Servis xizmati” yo‘nalishlarida xalq

hunarmandchiligi har bir turiga dars soatlari ajratilgan. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tishdan oldin albatta uning taraqqiyot bosqichi va tarixi haqida to'xtalib o'tish hamda o'quvchilarga qisqacha tushunchalar berish lozim deb hisoblaymiz.

Maqolada Texnologiya fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarga xalq hunarmandchiligining taraqqiyoti bosqichlari haqida tushunchalar berishga oid masalalar qaraladi.

Aynan, xalq hunarmandchiligi taraqqiyotining qadimgi davr qachondan boshlanganligi haqida to'xtalib o'tsak. Arxeologlarning Afrika va Yava orolida olib borgan tadqiqotlari sayyoramizda odamlar 3-3,5 million yillardan beri yashab kelayotganligini ko'rsatadi va bu davr qadimgi paleolit davri deb ataladi. Bu davr va undan keyingi mezolit davri odamlarning termachilik va ovchilikka asoslangan turmush tarzi tabiatdagi tayyor narsalarni o'zlashtirish, iste'mol qilish xo'jaligi deb ham ataladi. Uchinchi davr neolit - yangi tosh davri bo'lib, unga miloddan avvalgi 6-4 minginchi yillar kiradi. Neolit davri odamlarning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik orqali iste'mol qilinadigan mahsulotlarni o'zlari yaratishga asoslangan turmush tarzi, ishlab chiqarish xo'jaligi shakllangan bosqich deb ham ataladi. Demak, hunarmandchilik taraqqiyoti neolit davridan, ya'ni miloddan avvalgi 6-4 minginchi yillardan boshlangan. Bu davrda tosh qurollari orasida toshboltalar, ponalar, iskanalar, toshteshalar paydo bo'ldi. Neolit davri «toshboltalar asri» ham deyiladi.

Hunarmandchilikning sopol buyumlar yasash tarmog'i vujudga keladi. Shuning uchun bu davrni «sopol asri» ham deyishadi. Neolit davrida ishlab chiqaruvchi xo'jalik shakllanib bo'ladi. Bu insoniyat erishgan katta yutuk, bo'lib, odamlar tabiatga qaramlikdan butunlay qutiladilar. Jamoalar (urug'lar) ozuqa izlab ko'chib, daydib yurishdan o'troa, hayot kechirishga o'tadilar. Doimiy yashaydigan kulbalar, uylar qurish odamlarning turmush tarziga aylanadi, qishloqlar vujudga keladi [1]

Neolit davrida odamlar hayvon terisidan tikilgan kiyimlar o'rniga jun va o'simlik tolasidan to'qilgan matolardan tikilgan kiyimlar kiyadigan bo'ladilar. Hunarmandchilikda to'qimachilik, tikuvchilik tarmog'i ham paydo bo'ladi.

To'rtinchi davr - eneolit, ya'ni misdan qurollar yasash o'zlashtirilgani uchun toshmis davri deyiladi, u miloddan avvalgi 4 minginchi yillarda yuz berdi.

Beshinchi davr - bronza, ya'ni mis va qalay qotishmasidan mehnat qurollari yasash o'zlashtirilgan davr boshlib, miloddan avvalgi 3-2 minginchi yillarni o'z ichiga oladi. Ajdodlarimiz miloddan avvalgi 3 minginchi yillardayoq, misga qalay aralashtirib bronza, ya'ni qattiq, metall qotishmasini olishni, undan pishiq va qattiq, mehnat qurollari, qilich, xanjar, uy-ro'zg'or buyumlari, zeb-ziynat bezaklari yasashni o'zlashtirib oldilar. Bu davr bronza davri deb nom oldi.

Bronzaning kashf etilishi metallurg hunarmandlarni, metallurgiya ustaxonalari va zargarlik ustaxonalarini vujudga keltirdi. Hunarmandchilikning bu tariqa ixtisoslashuvi turli hududlar o'rtasida mahsulot ayirboshlash, ularni iqtisodiy jihatdan bog'laydigan aloqa yo'llarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Miloddan avvalgi bir minginchi yillar boshlarida temirdan turli qurollar va asbob-uskunalar yasashning o'zlashtirilishi natijasida *temir asri* boshlanadi.

Ayrim ishlab chiqarish jamoalari dehqonchilik bilan, boshqalari chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan shug'ullanadilar. Ular o'rtasida dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik mahsulotlarini o'zaro ayirboshlash kengayib bordi. Bu esa, o'z navbatida, savdogarlar tabaqasini, ilk shaharlarning muhim belgilaridan biri sifatida bozorlarni keltirib chiqaradi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tovar ayirboshlash yuz berdi, dastlabki shaharlar paydo bo'ldi. Arxeolog olimlarning so'nggi tadqiqotlari asosida fikr yuritadigan bo'lsak, O'zbekiston xududida bronza davridayoq, miloddan avvalgi 2 minginchi yillik o'rtalarida kichik shahar davlatlari shakllangan.

Shunday qilib, mamlakatimiz odam paydo bo'lgan ilk mintaqalardan biridir. Vatanimizda odamlar qariyb million yillardan beri yashab kelmoqdalar. Ular o'z taraqqiyotida ibtidoiy to'da, urug' jamoasidan iborat uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdilar. Yashash uchun kurashib, oddiy tosh qurollari yasashdan metallni kashf

etishgacha, metallardan mehnat qurollari, uy-ruztor va turli xil bezak buyumlari yasashgacha ko'tarildilar. Yalang'och xolda yashashdan jun, paxta, pilla tolasidan kiyim tikib kiyishgacha, g'orlarda yashashdan uy-joy qurish, qishloq-qishloq bo'lib yashashgacha bo'lgan uzoq ijtimoiy rivojlanish davrini boshdan kechirdilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki yuqoridagi taraqqiyot jarayoni hunarmandchilikning qanchalik qadimiy faoliyat sohasi ekanligini ko'rsatadi. Hunarmandchilik o'z taraqqiyoti jarayonida uy hunarmandchiligi, buyurtma va bozorga asoslangan hunarmandchilik shakllarini bosib o'tgan. Hunarmandchilikning bunday bosqichlarni bosib o'tishiga ijtimoiy mehnat taqsimotlari katta turtki bergan haqida o'quvchilarga atroflicha tushunchalar berilsa ular bu fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi va bu sohaning qanchalik qadimiy ekanligi to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmonov K., Sodikov M., Burxonova S. O'zbekiston tarixi. Darslik. - T., 2005. -478 b.
2. Abdullaeva R. G. Hunarmandchilik taraqqiyotining tarixiy va institutsional asoslari, Iqtisod va moliya, 2017, 2